

**Qishloq xo‘jaligi vazirligida 2023-yil III-choragi uchun korrupsiyaga qarshi  
kurashish tizimining amal qilishi haqida  
UMUMIY HISOBOT \***

**I. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot**

Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 28 fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishda tizimli yondashuvni joriy etish to‘g‘risida”gi 31-sonli buyrug‘i qabul qilingan bo‘lib, buyruq bilan Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish bo‘yicha Chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan. Chora-tadbirlar dasturi bilan belgilangan vazifalarni o‘z muddatlarida ta‘minlanishi yuzasidan har kvartal bo‘yicha doimiy monitoring olib borilmoqda.

2023 yil 20-aprelda Qishloq xo‘jaligi vazirligi, hududiy va tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo‘yicha (*Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2023 yil 7 apreldagi 9-sonli bayonnomasiga 1-2-ilovalari ijrosi*) chora-tadbirlar dasturi (05/20-83-сонли) tasdiqlangan bo‘lib, chora-tadbirlar dasturi bilan belgilangan vazifalarni o‘z muddatlarida ta‘minlanishi yuzasidan har kvartal bo‘yicha doimiy monitoring olib borilmoqda.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazib borishni yo‘lga qo‘yish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 oktyabrdagi PQ-5263 - son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 2021 yil 5 noyabrda vazirlikning 247-sonli buyrug‘i qabul qilinib, buyruq bilan 2023 yilda huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish rejasi tasdiqlanib, bugungi kunda vazirlik tomonidan bir nechta qonun va qonunosti hujjatlar ekspertizadan o‘tkazilmoqda.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori hamda 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-son qarori ijrosini ta‘minlash, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatni takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish maqsadida “Qishloq xo‘jaligi vazirligi, hududiy va tarkibiy tuzilmalar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash” Uslubiyoti ishlab chiqilib, vazirlikning 2023 yil 21 sentyabrdagi buyrug‘I bilan tasdiqlandi va ijroga qaratildi.

**III. Xavf-xatarlarni baholash**

Qishloq xo‘jaligi vazirligi Ichki audit va komplayens-nazorat bo‘limi tomonidan Qishloq xo‘jaligi vazirligining 107 funksiyasidan 50 ta funksiyasi bo‘yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi shakllantirilib, ushbu funksiyalar bo‘yicha mavjud xavf-xatarlarni baholash jarayonlari amalga oshirildi.

Vazirlik hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarni jalb qilgan holda xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshirish choralari ko'rib kelinmoqda. Shu bilan birga, vazirlik hududiy boshqarmalari va tizm tashkilotlaridagi tuzilmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibga rioya qilish bo'yicha maslahatlar berib kelinmoqda.

#### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar** **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish:**

Vazirlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom talablariga muvofiq vazirlik xodimlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida "Manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi/mavjud emasligi haqidagi arizalar"ni to'ldirish tizimi joriy qilib, mavjud xodimlardan yillik to'ldiriladigan arizalar va ishga yangi kirgan xodimlardan ishga yangi kirganda to'ldiriladigan arizalar to'ldirilgan holatda qabul qilib olindi va to'ldirilgan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalar tahlil qilib chiqildi.

Tahlillar davomida vazirlik markaziy apparatining 4 ta xodimi tadbirkorlik subektlari ishtirokchisi ekanligi aniqlanib, ushbu to'qnashuvlarni bartaraf etish yuzasidan vazirlik rahbariyati va vazirlikning Odob axloq komissiyasiga xulosa qilish uchun ma'lumotlar taqdim etildi.

#### **Korrupsiyaga qarshi qoidalarni vazirlik shartnomalariga kiritish:**

Qishloq xo'jaligi vazirligi va kontragentlar bilan tuziladigan xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish joriy qilingan bo'lib, ushbu korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilmagan shartnomalar bo'yicha kontragentlar bilan shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgan.

#### **Kontragentlarni tekshirish:**

Qishloq xo'jaligi vazirligida xarid qilish tartib-taomillari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishda manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni, insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish va xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash maqsadida kontragentlarni tekshirish tizimi joriy etildi.

2023-yil III-choragida vazirlik tomonidan amalga oshirilgan 9 ta xaridlar yuzasidan xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish, shu jumladan, ular o'rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtai-nazaridan o'rganish o'tkazildi. O'rganish natijalari bo'yicha kontragentlar bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi barcha holatlarda ijobiy xulosalar qabul qilindi.

#### **Ishga nomzodlarni tekshirish:**

Vazir markaziy apparatiga nomzodlar ishga qabul qilishda nomzodlarning lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga egaligi, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil emasligi, rahbarlik va moddiy javobgarlik

bilan bog‘liq lavozimlarga bilimli, halol, vijdonli, qonunga itoatkor xodimlarni tanlab olish joriy qilingan.

Jumaladan, vazirlik markaziy apparati yangi ishga qabul qilingan jami 11 nafar nomzodlar ustidan tekshiruvlar o‘tkazildi. Tekshiruv natijalari bo‘yicha ushbu nomzodlar bo‘yicha barcha holatlarda ijobiy xulosalar qabul qilindi.

#### **V. Ta‘lim va kommunikatsiya**

Vazirlik xodimlari, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni vazirlikning hr.agro.uz platformasi orqali korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muntazam o‘qitib borilmoqda. Xar bir xodim hr.agro.uz platformasiga o‘z login parollari orqali kirishib, joylashtirilgan o‘quv materiallari bilan tanishishadi va o‘z malakalarini oshirishadi.

Shuningdek, vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha Qishloq xo‘jaligi vazirligi Komplaens nazorat xizmati telegram kanaliga vazirlik xodimlari jamlanib, ularga doimiy ma‘lumotlar berib borilmoqda.

Vazirlikning Komplayens nazorat xizmati tomonidan vazirlik tizimi miqyosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha nimalarga ahamiyat qaratish, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan amaliy ishlarni aniqlash maqsadida xodimlar o‘rtasida davra suhbatlari va seminarlar o‘tkazildi. Jumladan, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularida jami 23 ta keng ko‘lamli bevosita va onlayn targ‘ibot tadbirlari amalga oshirildi. Shundan, 18 ta davra suhbatlari va 5 ta seminar tashkil etildi. Shuningdek, vazirlik tizimida ommaviy axborot vositalari orqali jami 14 ta huquqiy targ‘ibot tadbirlari amalga oshirildi.

#### **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘risidagi xabarlar**

Vazirlik tizimida korrupsiya holati haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi 71-206-70-60 raqami tashkil etilgan. Ushbu raqam orqali fuqarolar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni yo‘lga qo‘yilgan, korrupsiyaviy holatlar haqida ma‘lumotlarni qabul qilish amalga oshiriladi.

Shuningdek, korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan vazirlikning “agro.uz” rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, [anticorruption@agro.uz](mailto:anticorruption@agro.uz) elektron pochta manzili va “[UzAgroAnticorruptionBot](#)” telegram bot tashkil etilgan.

2023-yil III-choragida korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan jami 13 ta murojaatlarning 4 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 1 tasi Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman), 1 tasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, 1 tasi boshqa tashkilotlar orqali hamda 6 tasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ravishda kelib tushgan.

Shundan, 4 tasi Toshkent viloyatiga, 3 tasi Navoiy viloyatiga, 2 tasi Toshkent shaxriga, har biriga 1 tadan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Farg‘ona viloyati va Samarqand viloyatiga 1 tadan to‘g‘ri keladi.

Qishloq xo‘jaligi vazirligiga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlarning ko‘rib chiqish natijalari bilan, 10 ta holatda murojaatchilarga tushuntirishlar berildi, 3 ta xolatda murojaat qanoatlantirilib, ma‘nullarga nisbatan tegishli choralar ko‘rildi.

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi, hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlariga ijro uchun yuboriladi.

#### **VII. Monitoring va nazorat**

Qishloq xo'jaligi vazirligi komplayens-nazorat xizmati tomonidan vazirlik tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilgan ishlarni o'rganish va tegishli choralar ko'rish maqsadida 2023 yil III-choragida Vazirlik xuzuridagi Bilim va innovatsiyalar markazi hamda "Uzdavyerloyiha" ilmiy loyihalash institutida o'rganishlar amalga oshirildi.

#### **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari**

O'tkazilgan o'rganishlar yakuni bilan shakllantirilgan ma'lumotlar va to'plangan hujjatlar vazirlik rahbariyatiga taqdim etildi, ushbu tashkilotlarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

#### **IX. Xulosalar**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish va tizimga joriy qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, vazirlik tizimi xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, vazirlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarga to'siq bo'layotgan illatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.